

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING UMUMIY JIHATLARI VA FARQLI TOMONLARI

Nazarova Zebiniso Ravshanjon qizi

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21019388>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan maqollar tahlil qilinadi hamda ularning umumiylik va farqlilik jihatlari o'rganiladi. Maqollarning shakl, mazmun, ma'no, madaniy va tarixiy kontekstdagi xususiyatlari solishtirma tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda har ikkala tilga oid maqollar misollar bilan taqqoslab, ularning xalq tafakkuri, urf-odatlar va hayotiy tajribalari bilan bog'liqligi ochib beriladi. Ushbu tadqiqot tilshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, til o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: maqollar, ingliz tili, o'zbek tili, solishtirma tilshunoslik, madaniyatlararo tafakkur, milliy xususiyatlar, semantika, frazeologiya, xalq donishmandligi, tarjima

Kirish: Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan o'ziga xos axloqiy hodisalar kodeksidir¹. Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Hamma maqollarda ham umumiylik bor. Maqol zamirida xalqning donishmandligi ming yillik tajribalari asosida chiqargan muhim hayotiy xulosasi yotadi. Maqollarlar eng avvalo xalqning urf odati, qadriyatlar, etnik madaniyati, turmush tarzi, zamon va davr birliklarini o'z ichiga olgan holda paydo bo'ladi. Ushbu hayotiy xulosani o'zida aks etgan frazeologizmlarni badiiy adabiyotda samarali ishlatish mazmunni boyitadi. Ana endi bu asarni boshqa bir tilga tarjima qilish masalasi qo'yilsa, ushbi asarni o'giryotgan tarjimondan o'tkir ziyraklik va katta matonat talab qilinadi. Har bir badiiy asar shakl va mazmunning dialektik birligini tashkil etadi. Bu xususiyatning badiiy tarjimada qayta yaratilishi to'la-to'kis adekvatlikka erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Ba'zi tarjimonlar faoliyatida kuzatilganidek, mazmun birinchi o'ringa qo'yilib, shaklga e'tiborsizlik bilan qaraladigan bo'lsa, muallif uslubi hamda personajlar nutqlari tasviri to'laonli chiqmaydi.

Tarjima hamma vaqt shakl va mazmunni bir butun holda qayta tiklashdek ijodiy jarayon bo'lib, u tarjimondan orginalning mazmun va g'oya birligini yaratish bilan bir qatorda uning muvofiq shaklini tiklashni ham talab qiladi. Ushbu toplanidan o'rin egallagan "Bemor" hikoyasida epigraf qilib olingan "Osmon yiroq, yer qattiq"² maqoli asarning boshdan oxirigacha jaranglab turadi. Bu maqol anglatadigan ma'no shuki, turmush og'ir kechmoqda, unda yashayotgan bechora odamlarning biror bir chorasi qolmagan, hech bir yoqdan ilinji, hech bir suyanishi mumkin bo'ladigan tirgak yo'q, shuning uchun osmonga aytay desa – uzoq, yerga aytay desa – qattiq, baribir eshitmaydi. Buni ingliz tiliga adekvar model bilan so'zma-so'z tarjima qilsak: "The sky is high, the earth is tough"³ shaklidagi maqol hosil bo'ladi. Biroq ushbu maqolni ingliz tilida bir nechta ekvivalenti bor: "Between Scylla and Charybds", "Devil and the deep sea, between the.", "Hammer and anvil. Between"⁴ kabilar. Maqol va matallarning ma'nosi

¹ Пословицы и поговорки народов Востока М., 1961. -С.11

² Abdulla Qahhor "Anor". "Bemor", T., "Gofur G'ulom", 2012.- B.80

³ K.M Karamatova, H. S. Karomatov " Maqollar ", Toshkent " Mehnat", 2000. -B. 25

⁴ K.M Karamatova, H. S. Karomatov " Maqollar ", Toshkent " Mehnat", 2000.- B.142

kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning ma'nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim .

Keng ma'noda maqol va matallarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda har qanday hollarda ham ularning obrazli timsoliy asoslari aynan muvofiq keladigan variantlar bilangina o'girish ma'noning o'zgarishiga, ma'noviy siljish hodisasi sodir bo'lishiga olib keldi. Ko'plab maqol va matallar boshqa tildagi, ayniqsa qardosh bo'lmagan tillardan tarjima qilish, murakkab ish.

Topishmoqlar, maqol va matallar , oddiygina so'zlar yig'indisi bo'lib qolmay, xalq donishmandligining, uning tasavvuri va badiiy fantaziyasi mahsulidir. Alohida xalqchil harakterga ega bo'lgan bu birliklar o'zida yaratuvchi xalq, yurt xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay jahondagi ko'pgina tillar frazeologiyasini shakllantirishga kuchli ta'sirini ham o'tkazadi. Shunday ekan , ularni o'rgiruvchi kishi har ikki xalq madaniyatiga mansub va ularning til boyligidan xabardor bo'lishi kerak. Tarjima shunday san'atki, unda biror so'z yoki iboraning tarjimasi shundaygina lug'atdan olib, ikkinchi tekstga ko'chirib qo'yilmaydi. Lug'at ko'p hollarda tekstda tasvirlanayotgan voqeani, vaziyatni ifodalash uchun o'zlik qilib qoladi.

Maqol, matal va topishmoqlar badiiy asarda muallif tilida hamda unda tasvirlangan personajlar nutqida ko'p uchrashi sababli, ular badiiy adabiyot uchun juda xarakterlidir. Biroq, A.V. Fedorovning fikricha, nutq vositalarining bu kartegoriyasi faqatgina badiiy adabiyotning xususiy mulki bo'lolmaydi. Chunki paramealogik birliklar publitsistikada va qisman, ilmiy adabiyotlarda ham ishlatiladi. Shuning uchun ularga faqat badiiy adabiyotga taalluqli masala deb emas, balki juda muhim umumiy til masalasi sifatida qaramoq kerak.

Ingliz tilidagi maqol, matal va topishmoqlarni ularning o'zbek tilidagi muqobillari bilan berish kerakmi yoki ularni so'zma-so'z tarjima qilgan ma'qulmi? Avvalo, agar hamma birliklarni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lganda edi, tarjima muammosi ham bo'lmasdi. Badiiy tarjimada parameologiyani aks ettirishni quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Asliyat paremasini tarjima tilidagi ekvivalentlari bilan almashtirish.
2. Asliyat tili maqollarini tarjima tilidagi muqobil variantlar bilan o'girish
3. Asliyat tilining frazeologiyasini aynan tarjima qilish (bular frazeologik iboralarni tarjima qilishning umumiy yo'lidir).

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Пословицы и поговорки народов Востока М., 1961. -С.11
2. Abdulla Qahhor "Anor". "Bemor", T., "Gofur G'ulom", 2012.- B.80
3. K.M Karamatova, H. S. Karomatov " Maqollar ", Toshkent " Mehnat", 2000.- B.142
4. Даль В.И. Пословицы русского народа. -М.:1984,-С.37.